

USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING AXAMIYATI

Xolmirzayev Shavkat Abdulazizovich

University of Business and Science

Pedagogika va psixologiya kafedrasи

katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada ta'lif sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari, yo'nalishlari yoritilgan. Shu bilan birga ustoz-shogird an'anasining kelib chiqishi, rivojlanishi, ta'lif oluvchining kamolotidagi o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, ta'lif oluvchilar, hamkorlik pedagogikasi, ustoz-shogird an'ana.

Аннотация: В статье освещаются вопросы педагогики сотрудничества, её особенности и направления, рол в повышении качества образования. Также рассматриваются происхождение и развитие традиции наставник-ученик, её место в совершенствовании обучающегося.

Ключевые слова: образование, обучающиеся, педагогика сотрудничества, традиция наставник-ученик

Abstract: The article is devoted to pedagogic collaboration and its peculiarities, direction to increasing the quality of education. As well there is considered the origin and development the traditional relationship teacher and student, its place in perfection of students teaching.

Key words: cooperation of pedagogic, education, student, tutor teacher, promotion of education, information.

Bu yo'lda amalga oshirilgan asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi ta'lif tizimining tashkil etilishidir. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi uni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, uzliksiz ta'lif tizimining barcha turlarida shaxsning har tomonlama shakllanishi, bilim va ko'nikmalarining chuqur rivojlantirib borilishi, o'zлari tanlagan kasb-hunar bo'yicha ta'lif olishlari ko'rsatilgan.

O'zbekiston ta'lif tizimi rivojining hozirgi bosqichida hamkorlik pedagogikasi muhim o'rinn tutadi. Pedagog olimlar hamkorlik pedagogikasiga "ta'lif beruvchilar va

ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqotiga asoslangan shaklda ta'lim berishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat jarayonidir", deya ta'rif berishadi. Bu muloqotda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'zaro mas'uliyat sezadi, tomonlarning hamkorligi ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

O'qituvchining hamkorlikdagi pedagogik jarayonni tashkil etishga oid faoliyati birinchi navbatda o'quvchilarning jamoada asosiy qadriyat sifatida o'zlarini namoyon qilishlarini ta'minlashga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish yo'llari va usullarini izlashga qaratilishi lozim. Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilar shaxsiga ziyon yetkazmaslik, ular ruhiyatiga shikact ko'rsatmaslik, ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish, zarur maslahatlar berish, bir o'quvchini ikkinchisi bilan qiyoslamaslik, shaxsiyatiga to'g'ri baho bera olish, o'quvchi rivojlanishining istiqbollarini aniq tasavvur eta olish kabilalar o'ta muhim.

Tarbiya ikkiyoqlama jarayon tarzida tarbiyaviy munosabatlarsiz amalga oshmaydi. Bu munosabatlar jarayoni ishtirokchilari individual ongi va irodasiga bog'liq bo'lmay, ular o'zaro munosabatda tarbiya jarayonining sub'yekt va ob'yektlariga aylanib, ijtimoiy munosabatlarning aloqadorligini tashkil etadi. O'z navbatida ular ijtimoiy munosabatlarning alohida sohasi bo'lsada, ularning xarakteri jamiyatdagi ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy-huquqiy, axloqiy munosabatlar darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiya jarayonidagi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro ta'sirlari ma'naviy-axloqiy munosabatlarni keltirib chiqarib, tarbiyaning o'ziga xos amaliy va nazariy maqsadini hal qilishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish uchun uning noma'lum, yashirin xususiyat va tendensiyalarini o'rganish va hisobga olish pedagogik jarayon va hodisalarning haqiqiy mohiyatini ochishga, munosabatlarga aloqador umumiyl tomonlar qonuniyatlarini bilishga zamin hozirlaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida faoliyat ijtimoiy qonuniyatlarni namoyon etib, jamiyat hayotining hamma jabhalari bilan uzviy bog'liqdir. Shu ma'noda tarbiya jarayonida amal qiluvchi o'zaro munosabat va qonuniyatlarni aniqlash nihoyatda murakkab.

An'anaviy ta'lim pedagogik jarayonda o'qituvchining sub'yekt sifatida, o'quvchini esa ob'yekt sifatidagi ishtirokiga asoslangan. Bu qoida o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'yekti haqidagi tasavvur bilan almashinadi. «O'quvchi-o'quvchi» munosabatlari hamkorlikning turli shakllari (hamkorlik, birga qatnashish, birga qayg'urish, birga ijod qilish, birgalikda boshqarish)da qabul qilingan umumiyl jamoa hayotiy faoliyatida amalga oshadi.

Hamkorlik pedagogikasining to'rtta asosiy yo'nalishi mavjud:

1. Insonparvarlikka asoslangan yondashuv.
2. Didaktik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua.
3. Tarbiya konsepsiysi.

4. Atrof-muhitni pedagogizatsiyalash (tarbiyaviy faoliyat)¹

Bugungi kunda biz ulkan pedagogik merosga egamiz. Hamkorlik pedagogikasi bu merosda “Ustoz-shogird” an’anasi ko‘rinishida ifodalangan. Unga ko‘ra, ustoz shogirdiga kuchaytirilgan tarzda ta’lim va tarbiya beradi. Tarixdan ma’lumki bu jarayonda ota-onha yoki katta yoshli oila a’zolari ta’lim jarayoniga aralashmagan. Natijada ustoz va shogird o’rtasida o‘zaro ishonch va sadoqat tarkib topgan. Shu sababli manbalarda ustoz va shogirdga nisbatan bir talay talablar qo‘yilgan. Sharq mutafakkirlari va allomalarining ijodiy meroslarida o‘qituvchi-tarbiyachi mahorati, ustoz-shogird an’analariga ham alohida o‘rin berilgan.

Abu Nasr Farobiy ustoz-murabbiya shunday talab qo‘yadi: “Ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham haddan tashqari ko‘ngilchanlik qilmasligi lozim”². Chunki ortiqcha zulm shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi, ustoz juda ham yumshoq ko‘ngil bo‘lsa, shogird uni mensimay qo‘yadi va hattoki u beradigan bilimdan sovib qolishi mumkin. Sharq mumtoz madaniyatining butun dunyoga mashhur namoyandalaridan biri Sa’diy Sherziy ta’lim-tarbiyada muallimning talabchan, bilim va tarbiya berishda qattiqko‘l bo‘lishining tarafdori bo‘lgan. Uning “Guliston” asarida ustoz shogird munosabatiga oid hikoyat keltiriladi: “Bir odam kurash san’atida zo‘r 33 mahorat qozondi, u 300 hiylani bilar va har kuni bir hiylani ishlatib ko‘rar edi. Shogirdlaridan biriga 299 hiylani o‘rgatdi.

Ammo bir hiylani o‘rgatmadidi. Ustozning hurmatini bilmagan shogird ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu so‘z podshoga yoqmaydi. Ular kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz oxirgi hiylasini ishlatib shogirdini yengadi. Ustoz hurmatini bilmagan shogird esa xaloyiq va podshohning nafratiga uchraydi»³.

XV asrning yirik olimlaridan biri Husayin Voiz Koshifiy o‘z asarlarida ustoz-shogird munosabatlariga keng to‘xtaladi; “Agar shogirdlikning binosi nimani ustiga quriladi deb so‘rasalar, irodat ustiga deb javob bergin. Agar irodat nima deb so‘rasalar, samo’ va toatdir deb aytgin. Agar samo’ etish va toat nima deb so‘rasalar, nimani ustoz aytsa uni jon qulog‘i bilan eshitish, chini bilan qabul qilish va vujud a’zolari orqali amalda ado etishidir, deb ayt”⁴.

U shogirdlikning 8 ta odobini ko‘rsatadi:

1. Birinchi bo‘lib salom berish.
2. Ustozning oldida oz gapirish.
3. Boshni oldinga egib turish.

¹ Abdullayeva O’. Pedagogika. – T.: TDPU, 2015. -45-b.

² Mahkamov U., Tilyaboyeva N. Kasbiy mahorat. / O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2007. -31-b.

³ O’sha joyda, 32-bet

⁴ Mahkamov U., Tilyaboyeva N. Kasbiy mahorat. / O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2007. -34-b.

4. Ko‘zni har tomonga yogurtirmaslik. 5. Gap so‘ramoqchi bo‘lsa oldin ustozdan ijozat olish. 6. Ustoz javobiga e’tiroz bildirmaslik. 7. Ustoz oldida boshqalarni g‘iybat qilmaslik. 8. O‘tirib turishda hurmat saqlash.

Koshifiy ustozlik shartlarini ham ko‘rsatadi. “Bilgilkim hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishni asosi mustahkam bo‘lmagay”⁵

Ustoz-shogird an’anasi haqida gap ketar ekan, shu o‘rinda Mirzo Ulug‘bek ijodiga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bilamiz. XV asrda yashab ijod etgan yana bir vatandoshimiz Mirzo Ulug‘bek ustoz-shogird an’anasiga asos solib, bu mакtabning rivojlanishiga katta hissa qo‘sheganligini tarixiy manbalar orqali bilamiz. Alloma bolalarni guruh-guruh bo‘lib o‘qitish, ularni birgalikda raqobat qila olishga, ustozlarning esa odil va halol bo‘lishga, ilmni o‘rgatish jarayonida isbot talab qilmaydigan dalillar keltirishni, har bir mashg‘ulotni yuksak saviyada o‘tkazishga da’vat etadi, ana shu bilangina o‘quvchilarni bilim olishga qiziqishi ortishi mumkinligini alohida ta’kidlaydi.

Ustoz o‘z shogirdiga hech qachon zulm qilmasligi, aksincha beg‘araz yordam ko‘rsatishi, ular orasidagi hamkorlik samimiyo bo‘lishi g‘oyat muhimligini qayta-qayta uqtiradi. Bu qarashlarning qanchalik to‘g‘ri ekanligini uning shogirdlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ali Qushchi umrining oxirigacha o‘z ustoziga sodiq qoldi, allomaning eng qimmatli asari hisoblangan “Ziji Ko‘ragoniy” asarini keyingi avlodlarga butunligicha yetkazishga sababchi bo‘ldi⁶.

Xulosa, tarbiyalanuvchining faolligi, uning o‘z-o‘zini tarbiyalashi o‘z xatti-harakatini nazorat qilish (o‘z faoliyatini ma’lum maqsadga yo‘naltirish) va tarbiyachiga ishonishiga ham bog‘liq. Tarbiyalanuvchi (ob’yekt)ning o‘qishda, jamoat ishlarida faolligi tarbiyaviy jarayon ning samaradorligini oshiruvchi omil hisoblanadi. Tarbiyalanuvchi va tarbiyachining faolligi va o‘zaro ishonchi, ular o‘rtasidagi hurmat hamda hamfikrlilikni mustahkamlaydi.

Bu esa pedagogik hamkorlikning asosiy maqsadidir. Ko‘pchilik o‘qituvchilar hamkorlikdagi pedagogik faoliyatga kirishar ekanlar, mavjud munosabatlar va pedagogik faoliyat me’yorlaridan kelib chiqqan holda bugungi kunda darsliklarda mazkur maqsadga yo‘naltirilgan jarayonni tashkil etish uchun didaktik mashqlar va topshiriqlarning yetarli emasligini ta’kidlaydilar. Bunday vaziyatda o‘qituvchilar pedagogik jarayonga ijodiy tarzda yondashgan holda mashqlar va topshiriqlarni tanlashlari va o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llashlari zarur. Mavjud qiyinchiliklarni o‘qituvchi o‘quvchilarni birgalikda faoliyat ko‘rsatishga undash orqali o‘zaro hamkorlik muhitiga olib kirish bilan bartaraf etishi lozim bo‘ladi.

⁵ O’sha joyda, 35-bet

⁶ Hashimov K., Nishanova S. Pedagogika tarixi. / Darslik. – T.; A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. -147-b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma’naviyat», 2008.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: «Adolat», 2007.
3. Abdullayeva O‘. Pedagogika. – T.: TDPU, 2015. -45-b.
4. Mahkamov U., Tilyaboyeva N. Kasbiy mahorat. / O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2007. -31-34 b.
5. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. / Darslik. – T.; A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. -147-b.
6. Odilboyevich, J. X. THE INFLUENCE OF ACCENTUATION OF CHARACTER AND TENDENCY TO PSYCHOPATHY ON THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. *THE ROLE OF DISCIPLINE" INTRODUCTION OF MEDISICAL PLANTS" IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF SPECIALISTS IN THE TECHNOLOGY OF GROWING MEDISICAL PLANTS*, 94.
7. Odilboyevich, J. X. (2023). SHAXS IJTIMOIY XIMOYASIZLIGI VA UNING OGISHGAN XULQ-ATVORIGA TASIRIDA SHAKILANADIGAN PSIXOANALITIK HIMOYA MEHANIZMLARI ORNI VA AXAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 33(2), 186-189.
8. Haydarjon, J. (2022). SHAXS IJTIMOIY XIMOYASIZLIGINIOGISHGAN XULQ ATVORGA TASIRINI IJTIMOIY PSIXOANALITIK MEXANIZMLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLYN ILMIY JURNALI*, 2(1), 9-12.
9. Odilboyevich, J. X., & Shokhrukhbek, M. (2023, April). The Role and Importance of (Ego) and (Id) in the Psyche of Children in Adolescence. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 28-33).
10. Odilboyevich, J. X., & Yuldashboyevich, A. S. (2024). SHAXSNING PSIXOLOGIK SENZITIVLIK DARAJASI VA UNING PSIXOLOGIK TIPOLOGIYASI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 145-148.
11. Odilboyevich, J. X. (2024). O’SMIRLIK YOSH DAVRIDA SHAXSDA SUITSID XOLATLARINI PROFILAKTIKA QILISH YO’LARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 111-114.
12. Одилбоевич, Ж. X. (2022). ШАХС ВА УНДАГИ ПСИХОПАТИЯ ХОЛАТЛАРИ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАЛЛАРИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ. *PEDAGOG*, 5(7), 693-699.